ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA INNOVATSIYA VA LOYIHALARNI BOSHQARISH

Toshboltayev Faxriddin O‘rinboyevich
Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD)
E-mail: toshboltayevfaxriddin88@gmail.com
Mamatkarimova Saidaxon Mamatvali qizi
Farg‘ona davlat universiteti Magistratura 70610105- Ta’limda axborot texnologiyalari yo‘nalishi
E-mail: saidaxonmamatkarimova83@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirishning nazariy hamda amaliy jihatlari bayon qilingan. Unda innovatsiya tushunchasi, uning iqtisodiy ahamiyati hamda davlat buyurtmasining innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi egallagan o‘rni yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va zamonaviy texnologiyalarni amalda joriy etish tajribasi haqida ham qator ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada innovatsion loyihalarni boshqarish jarayonidagi mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, davlat buyurtmasi, innovatsion loyiha, raqamli iqtisodiyot, texnologik rivojlanish, innovatsion faoliyat, loyiha boshqaruvi, davlat-xususiy sheriklik, startap loyihalar, investitsion muhit, raqamlashtirish, elektron hukumat, IT Park, innovatsion ekotizim, ilmiy tadqiqot, iqtisodiy samaradorlik, sun’iy intellekt, strategik rejalashtirish, monitoring tizimi, iqtisodiy taraqqiyot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты реализации инновационных проектов на основе государственных заказов. Освещается концепция инноваций, их экономическое значение и роль государственных заказов в развитии инновационной деятельности. Одновременно приводится ряд сведений об инновационных реформах, проводимых в Республике Узбекистан, процессах цифровизации и опыте внедрения современных технологий на практике. Анализируются существующие проблемы в процессе управления инновационными проектами и предлагаются научно-практические решения и рекомендации по их устранению. Результаты исследования имеют большое значение для эффективной реализации инновационных проектов

на основе государственных заказов и обеспечения экономического развития страны.

Ключевые слова: инновации, государственный заказ, инновационный проект, цифровая экономика, технологическое развитие, инновационная деятельность, управление проектами, государственно-частное партнерство, стартап-проекты, инвестиционная среда, цифровизация, электронное правительство, IT-парк, инновационная экосистема, научные исследования, экономическая эффективность, искусственный интеллект, стратегическое планирование, система мониторинга, экономическое развитие.

Abstract. This article describes the theoretical and practical aspects of implementing innovative projects based on state orders. It highlights the concept of innovation, its economic significance, and the role of state orders in the development of innovative activities. At the same time, a number of information is provided about the innovative reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan, digitalizatio processes, and the experience of implementing modern technologies in practice. The article analyzes the existing problems in the process of managing innovative projects and provides scientific and practical proposals and recommendations for their elimination. The results of the study are of great importance in the effective implementation of innovative projects based on state orders and ensuring the economic development of the country.

Keywords. Innovation, government order, innovative project, digital economy, technological development, innovative activity, project management, public-private partnership, startup projects, investment environment, digitalization, e-government, IT Park, innovative ecosystem, scientific research, economic efficiency, artificial intelligence, strategic planning, monitoring system, economic development.

KIRISH.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti keskin raqobat va texnologik yangilanishlar asosida rivojlanib bormoqda. Bunday sharoitda innovatsion faoliyat davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylanadi. Innovatsiyalar iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish mamlakat rivojlanishining asosiga aylanmoqda. Zamonaviy davlatlar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor bermoqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda esa davlat buyurtmasi tizimi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan loyihalar iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirishga ko‘mak beradi. Shuningdek, bunday loyihalar ilmiy salohiyatni oshirish va yangi texnologiyalarni yaratishga sabab bo‘ladi. Hozirgi davrda innovatsiyalarni joriy

ISSN 3030-3907

etish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Chunki innovatsion rivojlanish aholining turmush tarzini yaxshilashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ham innovatsion siyosatni rivojlantirish davlat darajasidagi muhim bo‘lgan vazifalardan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator dasturlar ishlab chiqildi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham innovatsion rivojlanishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu strategiya asosida davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va iqtisodiyotning boshqa sohalarida zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Innovatsion loyihalarni samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda juda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli loyihalarni rejalashtirish, moliyalashtirish va monitoring qilish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyatning samaradorligi aksariyat davlat tomonidan yaratilgan sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Davlat buyurtmasi esa innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy iqtisodiyot sharoitida barcha innovatsion tashabbuslarni birgina davlat mablag‘lari hisobidan rivojlantirish qiyin hisoblanadi. Shuning uchun davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni amalga oshirish tajribasi keng qo‘llamoqda. Bu albatta investitsion muhitni yaxshilash hamda yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Innovatsion loyihalarning muvaffaqiyati ularning puxta rejalashtirilganligi va samarali boshqarilishiga bog‘liq. Loyiha boshqaruvi jarayonida vaqt, mablag‘ va resurslardan oqilona foydalanish muhimdir. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish loyihalar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Hozirda raqamli platformalar orqali loyihalarni monitoring qilish va nazorat olib borish jarayonlari ancha qulaylashmoqda. Buning natijasida davlat buyurtmalari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarning shaffofligi va samaradorligi ortmoqda. Bu esa iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar ham yo‘q emas. Masalan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, malakali mutaxassislarlarning kamligi hamda byurokratik to‘siqlar loyihalarning samarali amalga oshirilishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ayrim hududlarda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham dolzarb muammolardan biri bo‘lmoqda. Yana ilm-fan hamda ishlab

ISSN 3030-3907

chiqarish o‘rtasidagi integratsiyaning sustligi ham innovatsion faoliyat rivojiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ham innovatsion loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu borada innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘rganish ham samara beradi.

Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni namoyon etadiki, davlat buyurtmasi asosida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotlarga investitsiya kiritish hamda yosh olimlarni rag‘batlantirish yuqori natijalarni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ham innovatsion ekotizimni rivojlantirish bo‘yicha keng imkoniyatlar bor. Buning uchun zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqolada davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatning iqtisodiy ahamiyati hamda davlat buyurtmasining loyihalarni rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Maqolada innovatsion loyihalarni boshqarish bosqichlari va ularning samaradorligini oshirish usullari haqida ham fikr yuritiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Innovatsion rivojlanish jarayonida uchrayotgan muammolar ham ko‘rib chiqiladi. Ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini o‘rganishdan iborat. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ham tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari innovatsion siyosatni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Asosiy qism. Innovatsiya tushunchasi va uning iqtisodiy ahamiyati. Innovatsiya tushunchasi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo davlatlari iqtisodiy taraqqiyotga erishishda innovatsion rivojlanishga alohida e’tibor qaratmoqda. Innovatsiya atamasi lotincha *“innovatio”* so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya mavjud tizimga yangi g‘oya, texnologiya yoki uslubni joriy etishni ifodalaydi. U iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat natijasida yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalar barpo etiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish imkonini yaratadi. Innovatsiyalar ilm-fan va texnika taraqqiyotining asosiy mahsuli bo‘lib hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyasiz raqobatbardosh rivojlanishga erishish qiyindir. Shu

ISSN 3030-3907

sababli ham aksariyat davlatlar innovatsion siyosatni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda.

Iqtisodiyot nazariyasida innovatsiya tushunchasiga turli olimlar tomonidan ta’rif berilgan. Xususan, mashhur iqtisodchi Jozef Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholagan. Uning fikriga ko‘ra, innovatsiya yangi mahsulot yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish va yangi bozorlarga chiqishni anglatadi. Shumpeter innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishini alohida ta’kidlagan. Hozirgi davrda ham ushbu nazariya o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki innovatsiyalar mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion rivojlanish natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va mahsulot sifati oshadi. Bu esa korxonalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida intellektual kapital muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiyalar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liqdir. Tashkiliy innovatsiyalar esa boshqaruv tizimlarini takomillashtirishni anglatadi. Marketing innovatsiyalari mahsulotni bozorga olib chiqishning yangi usullarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy innovatsiyalar esa jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan yangiliklarni ifoda etadi. Raqamli innovatsiyalar bugungi kunda jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar va elektron platformalarni bunga misol qila olamiz. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimida raqamlashtirish samaradorlikni oshirmoqda. Elektron hukumat tizimi ham innovatsion rivojlanishning muhim natijalaridan biri sanaladi. Hozirda zamonaviy ta’lim tizimida ham innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Innovatsion rivojlanish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning muhim omilidir. Chunki innovatsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, mahsulot tannarxini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Bu esa albatta korxonalarning foyda miqdorini oshiradi. Innovatsion iqtisodiyot investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini ham kuchaytiradi. Negaki investorlar zamonaviy texnologiyalar joriy etilgan loyihalarga ko‘proq qiziqish bildiradi. Innovatsiyalar eksport salohiyatini oshirishda ham alohida rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yuqori texnologiyali mahsulotlar xalqaro bozorda yuqori talabga ega bo‘ladi. Shu sababli ham rivojlangan davlatlar innovatsion faoliyatni doimiy qo‘llab-quvvatlaydi. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun grant va subsidiyalar ajratiladi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Bugungi kunda mamlakatimizda ham innovatsion rivojlanishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi innovatsion rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu strategiya asosida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning turli sohalariga joriy qilinmoqda. IT Park faoliyati ham innovatsion muhitni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yoshlarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar iqtisodiy samaradorlikni oshirib kelmoqda. Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa yangi texnologiyalarni amaliyotga tezkor joriy etish imkonini beradi. Demakki, innovatsion siyosat mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlatning roli o'ta muhim hisoblanadi. Chunki davlat tomonidan yaratiladigan qulay investitsion muhit innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik innovatsion faoliyat samaradorligini oshiradi. Innovatsion ekotizimni rivojlantirish orqali yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati kengayadi. Bu borada Oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarning innovatsion faoliyatdagi o'rni ham juda muhimdir. Negaki ilmiy tadqiqotlar innovatsiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Yosh olimlar hamda tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Ular aholi turmush darajasini yaxshilash va yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Shu sababli innovatsion rivojlanish har bir davlatning strategik maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Davlat buyurtmasining mohiyati. Davlat buyurtmasi zamonaviy iqtisodiyotni boshqarishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U davlat ehtiyojlarini qondirish maqsadida mahsulot, xizmat yoki loyihalarni amalga oshirish uchun beriladigan rasmiy topshiriqni anglatadi. Davlat buyurtmasi iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda davlat buyurtmasining roli katta bo'ladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari, transport hamda sanoat sohalarida davlat buyurtmalari juda keng qo'llaniladi. Davlat buyurtmasi orqali asosan mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsad qilinadi. Shu bilan bir qatorda, davlat buyurtmalari innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat buyurtmasi muhim vosita shaklida namoyon bo'ladi. Negaki ko'plab ilmiy

ISSN 3030-3907

va texnologik loyihalar katta mablag‘ni talab qiladi. Bunday sharoitda davlatning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi innovatsion rivojlanishni yanada jadallashtiradi.

Davlat buyurtmasining asosiy maqsadlaridan yana biri iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda jamiyat ehtiyojlarini ta’minlashdan iborat. U orqali davlat iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirish mumkin. Davlat buyurtmalari yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etishga yordam beradi. Shu sababli ham rivojlangan davlatlarda innovatsion siyosat davlat buyurtmalari bilan chambarchas bog‘liq holda olib boriladi. Davlat buyurtmasi asosida ilmiy tadqiqotlar moliyalashtiriladi. Bu esa ilm-fan rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida davlat buyurtmasi muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Chunki davlat buyurtmalari korxonalar uchun barqaror bozor muhitini yaratadi. Natijada ishlab chiqaruvchilar yangi texnologiyalarni joriy etishga qiziqish bildiradilar. Bu esa raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishiga va ularning ortishiga sabab bo‘ladi.

Davlat buyurtmalari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida ham muhim ahamiyatga egadir. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Ayniqsa, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat buyurtmalarining ahamiyati yanada ortmoqda. Elektron platformalar orqali davlat buyurtmalarini amalga oshirish tizimi shaffoflikni ta’minlashga katta hissa qo‘shmoqda. Bu esa korrupsiya holatlarining kamayishiga yordam beradi. Shuningdek, davlat buyurtmalarini elektron shaklda tashkil etish vaqt va mablag‘ tejalishiga ham olib keladi. Bundan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalari davlat buyurtmalarini boshqarish jarayonlarini soddalashtirilmoqda. Raqamli monitoring tizimlari esa loyihalarning bajarilish holatini nazorat qilish imkonini bermoqda. Natijada davlat mablag‘laridan samarali foydalanish ta’minlanadi. Bu esa pirovardida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat buyurtmalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki barcha loyihalarni faqat davlat korxonalari orqali bajarish samarali natija bermasligi mumkin. Shu sababli ko‘plab davlatlarda davlat-xususiy sheriklik tizimi keng rivojlangan. Bunday hamkorlik investitsiyalar hajmini yanada oshirish imkonini beradi. Chunki xususiy sektor innovatsion g‘oyalarni tezroq amaliyotga joriy etish salohiyatiga ega hisoblanadi. Davlat esa huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu jarayonni rag‘batlantiradi. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi. Ayniqsa, startap loyihalarni rivojlantirishda davlat buyurtmasining juda o‘rni katta. Yosh tadbirkorlar va olimlarning innovatsion

ISSN 3030-3907

tashabbuslari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa innovatsion ekotizimning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Mamlakatimizda ham davlat buyurtmasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda davlat buyurtmalarining shaffofligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Elektron tender tizimlarining joriy etilishi bunga misol bo‘la oladi. Davlat buyurtmalari asosida infratuzilma, ta’lim va IT sohalarida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Hamda Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarga davlat grantlari ajratilmoqda. Bu esa yosh olimlarning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat buyurtmalari asosida hududiy rivojlanish dasturlari ham amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar orqali hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlantiriladi.

Davlat buyurtmalarini amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, byurokratik to‘siqlar va hujjatlashtirish jarayonining murakkabligi ayrim hollarda loyihalarning sekinlashishiga sabab bo‘ladi. Afsuski, moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish holatlari ham uchrab turadi. Ayrim hollarda loyiha monitoringining sustligi natijadorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ham davlat buyurtmalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi. Bu borada xalqaro tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda davlat buyurtmalari asosida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha samarali tizimlar yaratilgan. Ayniqsa, elektron boshqaruv va raqamli monitoring mexanizmlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ham davlat buyurtmalarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish muhim hisoblanadi. Davlat buyurtmasi tizimini takomillashtirish orqali innovatsion rivojlanish va iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin.

O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni amalga oshirish tajribasi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida katta e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi shakllantirilmoqda. Ayniqsa, ilm-fan, axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot sohalarida turli keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish asosiy maqsadlardan biridir. Shu sababli davlat tomonidan innovatsion

ISSN 3030-3907

loyihalarni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha ham qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu asosi esa innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshishini ta’minlaydi. Innovatsion rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi innovatsion rivojlanishning muhim bosqichlaridan biri bo‘lmoqda. Ushbu strategiya asosida davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. Elektron hukumat tizimining rivojlanishi davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirmoqda. Fuqarolar uchun ko‘plab xizmatlarning onlayn shaklga o‘tkazilishi vaqt va mablag‘ tejalishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlik ta’minlanmoqda. Bundan tashqari, elektron platformalar orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish korrupsiya holatlarining kamayishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning turli sohalarida innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, bank-moliya tizimida zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Elektron to‘lov tizimlari va onlayn xizmatlar aholiga katta qulaylik yaratdi. Bu esa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida katta o‘zgarishlar qildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda IT Park faoliyati innovatsion ekotizimni rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. IT Park rezidentlariga yaratilgan imtiyozlar yosh dasturchilar va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Bu yerda ko‘plab startap loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, dasturiy ta’minot va mobil ilovalar yaratish bo‘yicha loyihalar keng rivojlanmoqda. Yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli grant va tanlovlar tashkil etilishi, ularning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirmoqda. IT Park faoliyati natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda va eksport hajmi ortmoqda. Shu bilan birga, xalqaro IT kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalari ham kengaymoqda. Bular albatta mamlakatning texnologik salohiyatini oshirishga sabab bo‘ladi. Innovatsion markazlar va texnoparklar iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlar ham mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida

ISSN 3030-3907

zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy qilinishi, masofaviy ta’lim platformalarining rivojlanishi ta’lim olish imkoniyatlarini kengayishini ta’minlamoqda. Elektron kutubxonalar va raqamli ta’lim resurslari ham talabalar uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda STEM ta’limiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Robototexnika va dasturlash bo‘yicha o‘quv markazlari soni ortib bormoqda. Bu ham yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish tizimining rivojlanishi ham innovatsion faoliyat samaradorligini oshirmoqda. Bundan tashqari, Oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Sanoat sohasida ham innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muhim ishlar olib borilmoqda. Xususan, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayonlari rivojlanmoqda. Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, qishloq xo‘jaligida aqlli texnologiyalardan foydalanish eas hosildorlikni oshirishga imkon yaratmoqda. Ayniqsa, tomchilatib sug‘orish va raqamli monitoring tizimlari samarali natijalar bermoqda. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimlari joriy qilinishi ham ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam bermoqda. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda loyihalar iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Aytish mumkinki, innovatsion rivojlanish mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda texnologik infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi loyihalar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Malakali mutaxassislar yetishmasligi ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham innovatsion ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatlidir. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi ham ayrim startap loyihalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Biroq davlat tomonidan grantlar va investitsion dasturlar orqali bu muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rilsa, maqsadga erishish osonlashadi. Xalqaro tajribani o‘rganish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ham innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik tizimini yanada rivojlantirish zarur. Chunki innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash mumkin. O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni amalga oshirish tajribasi kelajakda yanada rivojlanishi

ISSN 3030-3907

uchun keng imkoniyatlar mavjud. Innovatsion taraqqiyot mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasida muhim o‘rin egallaydi.

Mavjud muammolar hamda taklif va tavsiyalar. Hozirgi kunda davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar uchrab turibdi. Mazkur muammolar innovatsion faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Eng asosiy muammolardan biri bu moliyaviy resurslarning yetarli emasligidir. Ayrim innovatsion loyihalar katta mablag‘ talab qilgani uchun ularni amalga oshirish qiyinlashadi. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarining yetarli rivojlanmaganligi ham muhim muammolardan biri bo‘lmoqda. Ba’zi hollarda byurokratik to‘siqlar loyihalarning o‘z vaqtida bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hujjatlashtirish jarayonining murakkabligi ham innovatsion tashabbuslarning sustlashishiga sabab bo‘ladi. Ayrim hududlarda texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham dolzarb masala hisoblanadi. Internet va zamonaviy texnologik vositalarning cheklanganligi ham innovatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Bundan tashqari, malakali mutaxassislar yetishmasligi ham innovatsion loyihalarni boshqarishda muammolar keltirib chiqaradi. Ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyaning sustligi natijasida ayrim ilmiy ishlanmalar amaliyotga joriy etilmay qolishi mumkin. Startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimining barcha hududlarda bir xil rivojlanmagani ham muammolardan biridir. Innovatsion fikrlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligini ham ayrim yoshlarning tashabbuskorligini pasayishiga omil sifatida qarash mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Avvalo, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir. Davlat grantlari va subsidiyalar sonini ko‘paytirish ham innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantirishga olib keladi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi. Elektron monitoring tizimlarini joriy etish esa loyihalarning shaffofligini ta’minlashga yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham muhim vazifalardan biridir. Yoshlarni innovatsion faoliyatga keng jalb qilish maqsadida startap markazlari va texnoparklar sonini oshirish lozim. Chunki hududlarda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish innovatsion faoliyat imkoniyatlarini kengaytiradi. Hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish innovatsion rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun ham, xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish innovatsion iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta’sir

ISSN 3030-3907

ko‘rsatadi. Umuman olganda, davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy talablaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi. Innovatsiyalar orqali yangi texnologiyalar yaratilib, iqtisodiyotning turli sohalariga joriy etilmoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Davlat buyurtmasi innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va zamonaviy loyihalarni amalga oshirishda uning ahamiyati katta hisoblanadi. Innovatsion loyihalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish bilan bir qatorda, yangi ish o‘rinlarini yaratishga ham omil bo‘ladi. Shu sababli ko‘plab davlatlar innovatsion siyosatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi.

Mamlakatimizda ham innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida turli innovatsion loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlariga aylanib bormoqda. IT Park, texnoparklar va startap markazlari yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham innovatsion rivojlanishning muhim natijalaridan biridir. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi investitsion muhitni yaxshilashga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunga qaramasdan, innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi va byurokratik to‘siqlar loyihalar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi. Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish innovatsion taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Shu bilan birga, hududlarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki raqamli texnologiyalar asosida monitoring va boshqaruv tizimlarini joriy etish loyihalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘rganish ham katta ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Umuman olganda, davlat buyurtmasi asosida innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish orqali ishlab chiqarishning zamonaviy va samarali tizimi shakllanadi. Bu esa aholining turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi. Kelajakda innovatsion siyosatni yanada rivojlantirish va yoshlarning ilmiy-texnologik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash muhim vazifa bo‘lib qoladi. Innovatsion taraqqiyot mamlakatning strategik rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2018.
4. Shumpeter J. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
5. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper Business, 1985.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
7. Abduqodirov A.A. Innovatsion menejment. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020.
8. Qosimov F.M. Loyiha boshqaruvi asoslari. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019.
9. To‘xtayev B.X. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2021.
10. Saidahmedov N. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Moliya” nashriyoti, 2018.
11. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti:
12. www.mininnovation.uz
13. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy sayti:
14. www.digital.uz
15. IT Park Uzbekistan rasmiy sayti:

ISSN 3030-3907